

**MUHAMMAD FAXRIY HIRAVIYNING “RAVZAT US-SALOTIN” TAZKIRASIDA O‘ZBEK VA MO‘G‘UL XONLARI ZIKRI**

**Sharipova Munira Hamidullayevna,**  
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent, O‘zbekiston*  
E-mail: [msharipova775@gmail.com](mailto:msharipova775@gmail.com)

**Annotatsiya.** *Hirot tazkirachilik maktabining davomchisi Muhammad Faxriy Hiraviyning “Ravzat us-salotin” nomli tazkirasi xon, sulton, shahzoda va amir shoirlarning adabiy faoliyatiga bag‘ishlangan. Muhammad Faxriy Hiraviy tazkiraning “Nazmga iltifot ko‘rsatgan o‘zbek va mo‘g‘ul xonlari ahvoli bayoni” deb nomlangan ikkinchi bobida o‘n bir nafar o‘zbek va mo‘g‘ul xonlarining har birini alohida fiqralarda hurmat bilan tilga olar ekan, ular bilan bog‘liq tarixiy, adabiy hodisalarni bayon etadi, fe‘l-sajiyalaridagi o‘ziga xos jihatlarni ko‘rsatadi, o‘zbek va fors tillarida bitgan she‘rlaridan namunalar keltiradi. Maqolada “Ravzat us-salotin” tazkirasining o‘zbek va mo‘g‘ul podshohlari, sultonlari haqidagi mazkur bobi xususida so‘z yuritiladi, tazkira muallifining shoh shoirlarning mahoratlariga bergan baholari tahlil qilinadi. Shuningdek, bu ijodkorlar haqida boshqa manbalarda keltirilgan ayrim ma‘lumotlarga diqqat qaratiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *“Ravzat us-salotin” tazkirasi, shoh shoirlar, Muhammad Faxriy Hiraviy, shayboniy ijodkorlar, munosabat.*

**Annotation.** *"Rawzat us-Salatin" by Muhammad Fakhriy Hirawi, the successor of the Herat school of tazkirah, is devoted to the literary work of khans, sultans, princes and amir poets. In the second chapter of the tazkira, Muhammad Fakhriy Hiravi, entitled "Description of the situation of the Uzbek and Mongolian khans who paid tribute to Nazm", he respectfully mentions each of the eleven Uzbek and Mongolian khans in separate paragraphs. narrates the historical and literary events related to them, shows the unique aspects of their characters, and gives examples of their finished poems in Uzbek and Persian languages. The article talks about this chapter of the "Ravzat us-Salatin" tazkirah about the Uzbek and Mongolian kings and sultans, and analyzes the author's assessment of the skills of royal poets. Also, attention is paid to some information about these creators, which are given in other sources.*

**Key words:** *"Ravzat us-salatin" tazkira, royal poets, Muhammad Fakhriy Hirawi, Shayban artists, attitude.*

Shoir va adabiyotshunos Muhammad Faxriy Hiraviy (taxminan 1497-yili tug‘ilgan) tazkirachilikda Alisher Navoiy an‘analarini davom ettirgan. U 1521 – 1522- yillar mobaynida Navoiyning “Majolis un-nafois” tazkirasini “Latoyifnoma” nomi bilan fors tiliga tarjima qilgan. Ma‘lum bo‘ladiki, Muhammad Faxriy Hiraviy “Majolis un-nafois” tazkirasini ancha yosh paytlarida – yigirma besh yoshlarida tarjima qilgan. Tarjimon asarga bir necha bob ilova qilib, bir yuz sakson to‘qqiz nafar shoir haqida ma‘lumot keltirgan. Olimning “Sanoye‘ ul-husn” (“Go‘zal san‘at”) nomli risolasi badiiyat ilmi, qofiya va aruzga bag‘ishlangan. “Haft kishvar” (“Yetti mamlakat”) nomli tasavvufiy ruhdagi asarida tarixiy voqealar, turli afsonalar, axloqiy masalalar aks etgan. Uning “Tuhfat ul-habib” (“Do‘stlar tuhfası”) nomli majmuasi

“Radoyif ul-ash’or” (“Radifli she’rlar”) deb ham yuritiladi. Majmua turli davrlarga mansub shoirlarning fors tilida bitilgan she’rlaridan arab alifbosi tartibida g‘azal, qasida va boshqa janrlardagi asarlarning radiflari bo‘yicha tuzilgan. Muhammad Faxriy Hiraviy “Radoyif ul-ash’or” asari bilan keyinchalik keng tarqalgan she’rlarning radiflari bo‘yicha majmua tuzish an‘anasini boshlab bergan. U “Bo‘stoni xayol”, “Javohir ul-ajoyib” (“Ajoyib javohirlar”), “Ravzat us-salotin” (“Sultonlar bog‘i”) kabi asarlar ham yozgan. Shu bilan birga, Muhammad Faxriy Hiraviy sohibi devon shoir bo‘lib, she’rlaridan besh ming baytli turkiy “Devon” tuzgan.

Tazkirachilikda Alisher Navoiy an‘analarini davom ettirgan Hirot adabiy maktabining vakili Muhammad Faxriy Hiraviy qalamiga mansub “Ravzat us-salotin” (1551 – 1555) tazkirasini pokistonlik olim Sayyid Husomiddin Roshidiy tomonidan Haydarobodda 1968-yili nashr ettirilgan. O‘zbekistonda filologiya fanlari doktori Jaloliddin Jo‘rayev tazkirani fors tilidan o‘zbek tiliga ilk bor mahorat bilan to‘liq tarjima qilgan va 2014-yili chop ettirgan. Tazkira debocha va yetti bobdan iborat bo‘lib, muallif unda sakson bir nafar ijodkor sulton, xon va amirlarning shaxsiyati va ijodiy faoliyati haqidagi ma‘lumotlarni jamlagan. Ulardan aksariyatining nomlari shu tazkiradan boshqa manbalarda tilga olinmagan.

“Ravzat us-salotin” tazkirasining “Nazmga iltifot ko‘rsatgan o‘zbek va mo‘g‘ul xonlari ahvoli bayoni” nomli ikkinchi bobi chig‘atoy va o‘zbek xonlari, sultonlariga bag‘ishlangan. Faxriy Hiraviy kitobning mazkur bobiga o‘n bir nafar o‘zbek va mo‘g‘ul xonlarining har birini alohida fiqralarda tilga oladi, ular bilan bog‘liq tarixiy, adabiy hodisalarni bayon etadi, o‘zbek va fors tilida bitilgan she’rlaridan qirq olti misra namuna keltiradi, shoirlar iste’dodlariga baho beradi. Bular Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullohxon, Yunusxon mo‘g‘ul, Sulton Mahmudxon, Sulton Sa‘idxon, Rashidxon, Budoqxon, Muhammad Aminxon, Po‘lodxon (Po‘lod Sulton), Abdulazizxon va Sulton Sa‘id Ko‘hkan. Bu ijodkorlardan Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullohxon, Po‘lodxon (Po‘lod Sulton) va Abdulazizxon shayboniy sultonlardir. Yunusxon mo‘g‘ul, Sulton Mahmudxon, Sulton Sa‘idxon, Rashidxon, Budoqxon, Sulton Sa‘id Ko‘hkan mo‘g‘ul xonlaridir. Muhammad Aminxon esa Qozon xoni bo‘lgan.

XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrning birinchi choragida yashab ijod etgan Mutribiy Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro” asarida o‘n yetti nafar nazmiy iqtidorga ega bo‘lgan shayboniy sulton va xonlarning nomlarini tilga olgan. Bular: Abdulazizxon (Aziziy), Rustam Sulton (Rustiy), Abdol Sulton (Xush), Avaz G‘ozi Sulton, Bahodir Sulton, Muzaffar Sulton, Do‘stum Sulton, Po‘lod Sulton, Abdulmo‘minxon kabilardir.

“Ravzat us-salotin” tazkirasining “Nazmga iltifot ko‘rsatgan o‘zbek va mo‘g‘ul xonlari ahvoli bayoni” nomli ikkinchi bobi “Muhammadxon Shayboniy” fiqrasi bilan boshlanadi. Muhammad Faxriy Hiraviy tazkirada Shayboniyxon shaxsi va siyrati haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: “...Uning shavkati va adolati zamon ahliga ma‘lumdir. Uning bayonini biror munosib so‘z bilan boshlash mushkul. Bahodir, odil, karim ul-tab’ va betakalluf podshoh edi. Idroki baland va tab’i baland edi. Turk bo‘lgani uchun turkiy iboralardan nihoyatda bahramand edi” [5.34].

Mazkur muxtasar ta’rifdan so‘ng Shayboniyxonning goh-gohida she’r yozgani ta’kidlanadi: “...Mashhadi muqaddasda Hazrat Imom Ali ar-Rizo (alayhit-tahiyotu vas-sano)ga atab qasida aytgan. Mana bu ikki bayt o‘sha qasidadandir. Nazm:

*Tusu Mashhadkim, derlar lutfu ehson andadur,  
Ravzai Sulton Ali – shohi Xuroson andadur.  
Gumbazing qubbasi olamg‘a bo‘ldi nurbaxsh,  
Ko‘k erurkim, partavi xurshidi tobon andadur.*

Uning mana bu forsiy matla’si ham mashhurdir. Matla’:

*Bulbuloni tu ki jonam bulbulon ovardi,  
Bulbuloni shakkarin to bulbulon ovardi”.*

(Ya’ni

Jonimga bulbullarni keltirgan sening bulbuling,  
Shakar (so‘zli) bulbullar bulbul keltirdi) [5.34-35].

Shu o‘rinda qayd qilish joizki, “Ravzat us-salotin” tazkirasida ikki bayti keltirilgan va Imom Rizo alayhissalom nomi bilan tanilgan Ali bin Muso bin Ja’far (148 – 203)ga atalgan qasida ham, fors tilida bitilgan misralar ham Shayboniy “Devon”ida mavjud emas. Muhammad Faxriy Hiraviyning “Turk bo‘lgani uchun turkiy iboralardan nihoyatda bahramand edi” degan fikri haqiqatan ham asosli bo‘lib, Shayboniyning to‘rt ming misradan ortiq faqat o‘zbek tilidagi she’rlarini jamlagan “Devon”i tartib qilingan, uning qo‘lyozma nusxasi Istanbul shahridagi To‘pqopi saroyi kutubxonasida 2436 inventar raqami bilan usmonli turk sultoni Ahmad III (1673 – 1736) muhri ostida saqlanadi. “Bahr ul-hudo” (“Hidoyat dengizi”) nomli o‘zbek tilida bitilgan qasidasi ham bo‘lib, Britaniya muzeyi kutubxonasining Sharq qo‘lyozmalari bo‘limidagi Add.7914 inventar raqamli majmua tarkibidan o‘rin olgan.

Muhammad Shayboniyxonning nabirasi Po‘lodxon – Po‘lod Sulton (Temur Sultonning farzandi) haqidagi fiqra “O‘zbek sultonlari orasida husnu jamoli karamu tab’ latofati va tamkinu xilmu viqorda undan yaxshisi yo‘q edi” degan ta’rif bilan boshlanadi [5.39-40]. So‘ngra Po‘lod Sulton huzuridagi majlislarda hamisha

xushtab’li insonlar bo‘lishi, ular bilan go‘zal muomala qilishi haqida to‘xtalib bir voqeani bayon qiladi hamda fors tilida bitgan ikki misra she’rini keltiradi. Manbalarda Shayboniyxonning shoir nabirasi Po‘lod Sultonga Zahiriddin Muhammad Bobur 1519-yili Kobuldan “Devon”ini yuborganligi qayd etilgan.

“Ravzat us-salotin” tazkirasida Muhammad Aminxon ismli ijodkor Qozon viloyatining podshohi bo‘lganligi, darvishdil, xushtab’ va zarif bu inson Muhammad Shayboniyxon Xurosonni fath qilganda, unga hadyalar yuborgani haqida ma’lumot beriladi. Tazkirada yana shunday satrlarni o‘qiymiz: “Mana bu benazir aytilgan matla’ Muhammad Aminxonnikidir. Matla’:

*Shoxi nargis, sargaron dar bog‘ az toji zarast,  
Toji zar darvishi sohibtarkro dardi sar ast.*

(Ya’ni

Bog‘dagi nargisning shoxi sarxushligi tojning zaridandir,  
Jubbapo‘sh darvish uchun oltin toj bosh og‘rig‘idir”) [5.39].

Ahamiyatli jihatlardan yana biri shuki, Muhammad Shayboniy “Devon”ida ham Muhammad Aminxon nomi uchraydi. Shayboniy she’riyatida an’anaviy mavzulardan tashqari tarixiy shaxslar nomlari, real voqealar qalamga olinar ekan, quyidagi to‘rtlik Qozon xonining harbiy faoliyati bilan bog‘liq tarixiy voqea zamirida yaratilgan:

*Islom boshinga toji torak bo‘lsun,  
Yoring tunu kun Tangri taborak bo‘lsun.  
Eshittim, o‘rus kofirini qirmishsen,  
O‘g‘lum, senga g‘oziliq muborak bo‘lsun.*

Yirik tarixchi va siyosat olimi Ahmad Zaki Validiy To‘g‘onning ma’lumotiga ko‘ra, mazkur she’r asosida Qozon xoni Muhammad Aminxon (1469 – 1518) ning 1505-yilda ruslar bilan jang qilganligi va ularni mag‘lub etganligi voqeasi yotadi [4.133]. Shayboniyxon bu voqeadan xabar topgach, xursand bo‘ladi va Muhammad Aminxonni islom dini yo‘lida kurashib g‘olib bo‘lganligi bilan muborakbod etadi. Demak, ikki yurt xoni bir-birlari bilan do‘stona munosabatda bo‘lishgan, harbiy-siyosiy yutuqlaridan quvonishgan va she’riy qutlovlar yozishgan. Professor Ibrohim Haqqul “toji torak” iborasini davlat va saltanat sohiblarining bezakdor toshlaridan tamoman farqlanadigan darvishlik toji ma’nosida talqin qilgan [3.13].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Muhammad Faxriy Hiraviy “Ravzat us-salotin” tazkirasida hukmdor ijodkorlarni hurmat bilan tilga oladi, adabiy faoliyatlari va fe‘l-atvorlaridagi muhim jihatlarga e’tibor qaratadi. “Ravzat us-salotin” tazkirasining shayboniylar davri adabiyotini, xususan, shayboniy sultonlarning adabiy shaxsiyatini o‘rganishda ham ahamiyati katta. Tazkiradagi badiiy lavhalar,

shayboniylar davri adabiy muhiti va adabiy jarayoni, uning namoyandalari haqidagi ma’lumotlar mumtoz adabiyot tarixini chuqurroq o‘rganishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. 13-jild. – Toshkent: Fan, 1997.
2. Vohidov R. “Majolis un-nafois”ning tarjimalari. Toshkent. 1984.
3. Navoiyning ijod olami. Kitobda: Ibrohim Haqqul. Navoiy she’riyatida so‘zning obrazga aylanish asoslari. – Toshkent: Fan, 2011.
4. Togan A.Z. Velidi. Bugünkü Türk ili. Türkistan ve Yakın Tarihi. – İstanbul. 1947.
5. Faxriy Hiraviy. Ravzat us-salotin. Javohir ul-ajoyib. Fors tilidan J.Jo‘rayev tarjimasini. – Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2014.
6. Shayboniy “Devon”i fotonusxasi.